



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 14-mart, № 54 (8677)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'zbekiston Respublikasining QONUNI

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yong'inlar profilaktikasi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 26-dekabrda
qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 9-fevralda
ma'qullangan

Keyingi yillarda respublikamizda yong'inlar profilaktikasi
samaradorligini oshirish va yong'in xavfsizligi sohasida
davlat nazoratini takomillashtirish, fuqarolar hayoti hamda
sog'lig'ining, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar
mulkining ishonchli himoya qilinishini ta'minlash imkoniyatini
beruvchi yaxlit yong'in xavfsizligi tizimini yaratish borasida
keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga yong'inlar profilaktikasi samaradorligini
oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar
tushuntirish va profilaktika chora-tadbirlarini kuchaytirish
bilan bir qatorda yong'in xavfsizligi qoidalarini buzganlik
uchun javobgarlik choralarini kuchaytirilishini taqozo etmoqda.

Shuningdek huquqiy ta'sir choralarini qo'llashdagi
mutanosiblik va yetarilishning konstitutsiyaviy prinsiplariga
rioya etilishini ta'minlash maqsadida yong'in xavfsizligi
qoidalarining buzilishi bilan bog'liq ayrim ma'muriy
javobgarlik choralarini liberalashtirish talab etiladi.

Mazkur Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining
Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yong'in
xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik
choralarini kuchaytirishni, o'rmonlarda yong'in xavfsizligi
talablarini buzish yong'in chiqishiga olib kelganligi uchun
ma'muriy javobgarlik belgilashni, shuningdek yong'in
xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik
choralarini tadbirkorlik subyektlariga nisbatan to'g'ridan-
to'g'ri qo'llash huquqi davlat yong'in nazorati organlariga
berilishini nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar
kiritilmoqda.

(Davomi 2-betda).



Hamkorlik

TO'QIMACHILIKDA FRANSIYA TAJIRIBASI

O'zbekiston to'qimachilik korxonalari
mutaxassislari va dizaynerlari shu yil
3 — 12-mart kunlari Fransiyada o'tkazilgan
“Breeding va kreativ industriyalarda badiiy
kommunikatsiyalar” mavzidagi malaka oshirish
kurslarida qatnashdilar.

A m a l i y o t
“O'zto'qimachilik sanoat”
uyushmasi tomonidan kiyim-
kechaklarning yangi zamonaviy
dizayn va kolleksiyalarini
ishlab chiqish, jahon moda
tendensiyalaridagi o'zgarishlarni
o'rganish va ularni mamlakatimiz
to'qimachilik korxonalarida joriy
qilish maqsadida tashkil etildi.

Mazkur o'quvlarida
mamlakatimiz to'qimachilik
sanoatining 18 nafar vakili,

jumladan, to'qimachilik
korxonalari rahbarlari, oliy
o'quv yurtlari professor-
o'qituvchilari, O'zbekiston
moda sanoati va
hunarmandchiligi sohasi
vakillari qatnashdilar.

Amaliyot doirasida xalqaro
ekspertlar ishtirokida mahorat
darslari, o'quv seminarlari, davra
suhbatlari, uchrashuvlar, ilmiy-
amaliy konferensiyalar
o'tkazildi.



NYU-YORKDA OLIY MAILIS SENATI RAISI TOMONIDAN QATOR TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

Avval xabar berilganidek, Birlashgan Millatlar
Tashkilotining Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida
BMT Ayollar holati bo'yicha komissiyasining
68-sessiyasi bo'lib o'tmoqda. Bu anjuman ishida Oliy
Majlis Senati Raisi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini
oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha
respublika komissiyasi raisi Tanzila Norboyeva
boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok
etmoqda.

Ma'lumot o'rnida
ta'kidlash kerakki,
komissiya BMT Iqtisodiy
va ijtimoiy kengashining
ishchi organi bo'lib, xotin-
qizlarning huquqlarini
himoya qilish va ilgari
surish bo'yicha xalqaro

standartlarni hamda ular
bajarilishi yuzasidan
takliflarni ishlab chiqish
bilan shug'ullanadi.

Bu yilgi sessiyada
kambag'allikni bartaraf
etish, institutlar salohiyati
va moliyalashtirishni

kuchaytirish orqali gender
tengligiga erishish va
xotin-qizlar imkoniyatlarini
kengaytirish, bu borada
Pekin deklaratsiyasi va
Harakatlar platformasi
tamoyillarining hayotga tatbiq
etilishi masalalari muhokama
qilinayotir.

Anjumanida dunyo
davlatlarining sohaga
mas'ul parlament va
hukumat idoralari, vazirlik
hamda tashkilotlari,
nodavlat tuzilmalari va
fuqarolik jamiyati
instituti vakillari
ishtirok etmoqda.



Parlament nazorati

AGENTLIK DIREKTORIGA SENATOR SO'ROVI

Joriy yil yanvar-fevral oylarida Sirdaryo viloyatida Oliy Majlis Senati tomonidan
o'tkazilgan o'rganish va tahlillarga ko'ra, 2023-yilda viloyatda hokim yordamchilari
ko'magida aholi tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va ularni daromadli
mehnat bilan band qilish borasida salmoqli yutuq hamda natijalarga erishilgan. Ayni
chog'da tadbirkorlikni rivojlantirishda hokim yordamchilari faoliyati samaradorligi
bo'yicha o'z yechimini kutayotgan ayrim masalalar yo'q emas.

Shularni inobatga olib, Oliy Majlis Senati
Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar,
xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari
qo'mitasida doimiy asosda ishlovchi senator Anvar
To'ychiev Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni
rivojlantirish agentligi direktoriga senator so'rovi
yubordi.

So'rovda qayd etilishicha, 2023-yilda tashkil etilgan
2 824 ta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining
53,8 foizi faoliyatini to'xtatgan. Qolaversa,
hokim yordamchilari ko'magida mikroloyiha
va mikromarkazlar tashkil etish hisobiga aholi
bandligining ta'minlanishi rejaga nisbatan
atigi 36 foizni tashkil qilgan, xolos.



FARZANDINGIZ “VIRTUAL OLAM”DA NIMALAR BILAN BAND?

Bugun biz globallashuv zamonida yashamoqdamiz. Internet
rivojlanib, axborot almashinuvi tobora jadallashib bormoqda. Bunday
sharoitda yoshlarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, ularni
turli zararli oqimlar va yot g'oyalarga ta'siridan asrash eng dolzarb
masalalardan biri sanaladi.

Mushohada

Afsuski, aksariyat ota-onalar
farzandi “virtual olam”da nimalar bilan
band ekanidan mutlaqo bexabar.
Gohida farzandim ancha ulg'ayib
qoldi, endi biror mashg'ulot bilan
band bo'lsin, ishimizga xalaqit
bermasin, deya bolasini global tarmoq
bilan yolg'iz qoldirib, o'zlari ularni
“rag'batlantirmoqda”. Bunday holatlar
bora-bora bolada ota-onaning gapiga
quloq solmaslik, ulardan uzoqlashish,
qaysarlik, dangasalik, yolg'onchilik kabi
illatlarni avj oldiradi.

Hozir deyarli barcha o'smiring
qo'lida uyali telefon, planshet
bor. Bu esa ularning erkinligini,
o'zboshimchalikka moyilligini oshiradi.
Chunki uyali telefonni doimiy nazorat
qilish qiyin.

Har bir bola alohida individ, demak,
unga alohida e'tibor va yondashuv
zaur. Hozir aksariyat 13 — 16 yoshdagi
o'smirlar internetda faol. Ular uchun
internet muhim axborot manbai, faol
muloqot vositasi, vaqtichog'lik qilish
imkonidir. Bu yoshni ekspertlar ayni
“axborotga tashnalik davri” deb ataydi.
Boisi, o'smir o'g'il-qizlar barcha narsalar
haqida, ayniqsa, taqiqlangan “bilim”lar

to'g'risida ko'proq bilishni istaydi. Uni
o'qituvchidan so'rolmasa, ota-onasiga
og'iz ham ocholmasa, yoshi kattalardan
uyalsa, kim yordam beradi? Internet,
albatta.

Vaholanki, keyingi paytlarda
mutaxassislar jahon “o'g'rimchak to'ri”da
bolalar duch keladigan va ularning
ruhiyatiga salbiy ta'sir etuvchi juda ko'p
tahdidlar borligini bot-bot ta'kidlamog'da.
Ulardan eng xavfli zo'ravonlik, hayosizlik,
yovuzlik, axloqsizlik, g'iyohvandlik
moddalari, diskriminatsiya, neofashizm
kabi g'ayrinsoniy, tarbiyasizlikni targ'ib
qiluvchi sayt va materiallar bo'lib, afsuski,
ularga kirish ham oson.

Ulardagi axborotlar bola ongini
zaharlashi aniq. Shuningdek,
notanish kishilar bilan elektron
pochta, ijtimoiy tarmoqlar va turli
shubhali forumlar vositasida muloqot
qilish, xat-xabar yozishish
ham xavfli sanaladi.



Anjuman

GIDROENERGETIKA RIVOJI UCHUN MUHIM MAYDON

Poytaxtimizda gidroenergetika sohasida
an'anaviy ravishda o'tkazilib kelinayotgan
“Gidroenergetika. Markaziy Osiyo va Kaspiy”
sakkizinchi xalqaro anjumani va ko'rgazmasi bo'lib
o'tmoqda.



Uch kun davom
etadigan ushbu yirik
anjuman mintaqalardagi
gidroenergetika sohasining
rivojlanishi, gidroenergetik
inshootlarning qurilishi,
modernizatsiyasi, muammo
hamda istiqbollarini bo'yicha
o'ziga xos tajriba almashish,
hamkorlik va muloqot
maydoni vazifasini o'tayotir.

Unda Markaziy Osiyo
va Kaspiy mintaqalari
vakillari — O'zbekiston,
Tojikiston, Qozog'iston,
Qirg'iziston, Ozarbayjon,
Eron, Armaniston,
Rossiya, Gruziya, Turkiya
kabi yigirmaga yaqin
davlatlardan sohaga oid
idora va tashkilotlar, nufuzli
kompaniyalar xodimlari,
ekspertlar ishtirok etayotir.
“O'zbekgidroenergo”
aksiyadorlik jamiyati ham
asosiy strategik hamkor
sifatida qatnashmoqda.

Qayd etilganidek,
anjuman gidroenergetika
sohasida amalga
oshirilayotgan keng ko'lamli
ishlar, sohadagi yangi
innovatsion texnologiyalar

hamda xorijiy investorlar,
moliyaviy institutlar, tijorat
banklarini faol jalb etish,
yetakchi loyiha institutlari va
tashkilotlari bilan hamkorlik
hamda amaldagi aloqalarni
yanada mustahkamlashga
xizmat qilayotir.

Onlayn shaklda dunyo
bo'ylab namoyish etilayotgan
mazkur yirik anjuman
dasturi doirasida muhim
yo'nalishlardagi mavzular
muhokama qilinyapti.
Yangi yirik, o'rta va kichik
gidroelektr stansiyalarini
qurish, mavjudlarini
modernizatsiyalash,
bu borada davlat-
xususiy sheriklikni yo'lga
qo'yish, energiyani
saqlash hamda “yashil”
transformatsiya bo'yicha
xorij tajribasi, sohadagi
ilg'or innovatsiyalar, yangi
investitsiyaviy loyihalar,
GESlarni raqamlashtirish
va avtomatlashtirish
yo'nalishidagi ishlarni
takomillashtirish, energetik
xavfsizlikni ta'minlash kabi
masalalar shular
jumlasidandir.



MAQSAD — TIBBIYOTNI CHINAKAM XALQCHIL TIZIMGA AYLAN TIRISH



Bugun O'zbekiston tibbiyotida mutlaqo yangicha yondashuvlarga asoslangan
islohotlar jarayoni boshlangan. Bundan ko'zlangan eng ustuvor maqsad — xalqni rozi
qilish. “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyilni to'laqonli ro'yobga chiqarish yo'lida
esa sog'liqni saqlash tizimi xalqqa yanada yaqinlashishi, malakali tibbiy xizmat har bir
mahalla va xonadonga kirib borishi kerak.

Tahlil

To'qqizta ustuvor maqsad

Keyingi yillarda sog'liqni saqlash
sohasiga doir qator qonun, Farmon,
qaror va hukumat darajasidagi
boshqa hujjatlar qabul qilinib, ijroga
yo'naltirildi. Jumladan, davlatimiz
rahbarining tegishli Farmoni bilan
tasdiqlangan “O'zbekiston — 2030”
strategiyasidan yurtdoshlarimiz

salomatligini ta'minlash bilan bog'liq 9
ta ustuvor maqsad joy oldi.

Ulardan birinchisi, aholining o'rtaacha
umr ko'rish davomiyligini 78 yoshga
yetakzishga qaratilgan. Buning uchun
tibbiyotga yo'naltiriladigan mablag'lar
hajmini ikki barobar oshirish, onkologiya,
yurak-qon tomir, diabet va nafas yo'llari
kasalliklari bo'yicha erta o'limga 2,5
barabar kamaytirish, sil xastaligi bilan
kasallanish darajasini 100 ming aholiga
nisbatan hozirgi 34 nafardan keskin
pasaytirish ko'zda tutilgan.

Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni
yanada yaqinlashtirishga doir ikkinchi

maqsadga ko'ra, diabetga chalingan 350
ming va yurak-qon tomir kasalligi bor
1,5 million nafar bemorlarni davolash
bilan to'liq qamrab olish, tibbiy yordamga
muhtoj aholining 70 foiz murojaatlarini
birlamchi bo'g'inning o'zida hal etishga
erishish, bemorlarni gemodializ
o'rin-joylari bilan to'liq qamrab olish
belgilangan.

Uchinchi maqsad — bolalar o'rtasidagi
irsiy kasalliklarni ikki barobar qisqartirish,
chaqaloqlarda bunday xastaliklar
bo'yicha selektiv skrining tekshiruvlar
qamrovini kamida 50 foizga
oshirishni nazarda tutadi.





MAQSAD — TIBBIYOTNI CHINAKAM XALQCHIL TIZIMGA AYLANTIRISH

➡ To'rtinchi ustuvor maqsad — onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlashga doir qator chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Beshinchi maqsad — onkologik kasalliklarni erta aniqlash va o'lim ko'rsatkichini kamaytirishdan iborat.

Oltinchi ustuvor maqsad jirosida yuqumli bo'lmagan kasalliklarni erta aniqlash darajasini 70 foizga yetkazish, 40 va undan katta yoshdagi aholi orasida qandli diabet va arterial gipertoniya kasalliklarini erta bosqichida aniqlash ko'rsatkichini ikki barobarga oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Yettinchi maqsad — “Sog'lom va faol keksalikni ta'minlash” deb nomlangan. Undan har yili 55 va bundan katta yoshdagi aholini 100 foiz tibbiy profilaktik ko'rikdan o'tkazish va sog'lomlashtirish, 40 va undan katta yoshdagi aholi orasida jismoniy faol aholi ulushini ikki barobar oshirishga doir chora-tadbirlar o'r'in olgan.

Sakkizinchi maqsadda aholi orasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga oid qator vazifalar ustuvorlik qiladi.

To'qqizinchi maqsad asnosida esa yurtimizdagi tibbiyot muassasalarini raqamlashtirish darajasini 100 foizga yetkaziladi.

Xo'sh, ushbu vazifalar ijrosi doirasida tizimda qanday yangilanishlar amalga oshirilmoqda?

Malakali tibbiy xizmat har bir xonadonga kirib boradi

Tibbiyotni xalqqa yanada yaqinlashtirish, avvalo, birlamchi tibbiyot tizimini takomillashtirishdan boshlandi. Birgina o'tgan yili bu yo'nalishda belgilangan chora-tadbirlar ijrosi doirasida joylarda 22 ta oilaviy poliklinika, 93 ta oilaviy shifokor punkti va 394 ta mahalla tibbiyot punkti tashkil etildi. Natijada birlamchi tibbiy xizmatlar 2 million 100 ming nafardan ziyod aholiga yanada yaqinlashtirildi.

Ushbu bo'g'in muassasalari sa'y-harakati bilan 8,6 million aholi profilaktik tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ularning 685 ming nafari ambulator, 72 ming nafari esa stasionar sharoitda sog'lomlashtirildi. Skrinning tekshiruvlari orqali 167 ming nafar yurtdoshimizda yurak-qon tomir, 52 ming nafari qandli diabet kasalligi aniqlanib, ularning salomatligini tiklash choralari ko'riladi.

Oilaviy shifokorlik punktlari, oilaviy poliklinika va tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda kunduzgi stasionar ish vaqti soat 20:00 ga qadar uzaytirildi hamda ularda ishlovchi tibbiyot xodimlari uchun qo'shimcha ustama haq to'lash yo'lga qo'yildi. Natijada 134 ming nafar bemorga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining kunduzgi shifoxonalarida uyidan ajralmagan holda davolanish imkoniyati yaratildi.

Ammo sohada hali o'z yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklar ko'p. Xususan, Prezidentimiz joriy yil 5-fevral kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida shu haqda to'xtalar ekan, birlamchi tibbiyot tizimini aholi talabiga moslashtirish ishlarini davom ettirish muhimligini qayd etdi. Tibbiyot brigadalari shifokorlar bilan to'liq to'ldirish, to'liq stavkada ishlaydigan hamshiralarni ko'paytirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Har bir ona va bola o'limi “favqulodda holat” deb baholalanadi

Sog'lom farzand tug'ilishi, avvalo, onaning salomatligiga bog'liq. Qolaversa, zamonaviy



tibbiyotda chaqaloqda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli nuqsonlar va xastaliklarni homiladorlikning dastlabki bosqichidayoq aniqlash hamda bartaraf etish imkoniyati yaratilgan.

Mamlakatimizda keyingi yillarda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash borasidagi keng qamrovli tadbirlarda shunga alohida e'tibor qaratilyapti. 2017 — 2022-yillarda yurtimizda onalar o'limi ko'rsatkichi 1,5 baravar, go'daklar o'limi esa 1,3 baravarga kamayishiga erishilgani shuning samarasi.

Binobarin, kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarni bepul dori vositalari, tibbiy buyumlar va maxsus oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash joriy etilib, ularga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish ko'lami kengaytirildi. Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida bolalar anesteziologiya-reanimatsiya bo'limlari hamda kechayu kunduz shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatuvchi pediatriya postlari, shuningdek, poliklinikalarda bolalar bo'limlari tashkil etildi.

Barcha “tibbiyot brigadalari” tarkibiga qo'shimcha pediatriya hamshirasi va doya shtatlari ajratildi. Bolalar, homilador va tug'ish yoshidagi ayollarni zarur vitamin komplekslari, yod preparati, temir va foliy kislotasi bilan bepul ta'minlash joriy etildi.

Xalqaro hamda milliy tajribada birlamchi tizimda oliy ma'lumotli akusher-ginekologlar emas, o'rta maxsus ma'lumotli doylar ham homiladorlikning erta asoratlarini aniqlashda, fertli yoshdagi ayollarni sog'lomlashtirish, hisobga kiritish, qamrab olish, kuzatish, monitoring qilishda o'z vazifasini to'liq bajara olishi tasdiqlandi. Shunga asosan, 2022-yilning ikkinchi yarmi va 2023-yil boshidan 8,5 mingga patronaj doya shtati ochildi.

Yana bir muhim yangilik. Shu kungacha homilador ayol bitta holatga tashxis qo'yilishi uchun uch tashkilotga murojaat qilishga majbur edi. Ya'ni u reproduktiv salomatligi bo'yicha bitta markazga, homiladagi tug'ma nogironlik, genetik kasalliklarni aniqlash uchun skrinning markaziga va tug'ish jarayoni, qandaydir asoratlar bo'ladigan bo'lsa, tug'uruqxonaga alohida murojaat qilishi kerak bo'lgan. Bu esa sog'lom bola tug'ilishi, umuman, sog'lom oila qurishdagi talablarga javob bermaydigan mexanizm edi.

Birlamchi ambulator tizimda tumandagi tug'uruq majmualari, perinatal markazlar va respublika tug'uruq muassasalari bilan bog'liqlik deyarli yo'q edi. Homiladorlar bu borada o'z holicha, ba'zan umuman, ko'rsatma bo'lmagan hollarda respublika stasionarlariga murojaat etar yoki aksincha, respublika stasionarida davolanishi kerak bo'lgan

homilador ayollar tumanlarda qolib ketayotgani ham kuzatilayotgandi.

Prezidentimiz qarori bilan vertikal tizim yaratildi. Uning eng muhim bo'g'inlaridan biri 2023-yili faoliyat boshlagan 46 ta tumanlararo perinatal markazdir. Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hamda uning 14 ta hududiy filiali tashkil etildi. Bu filiallar tumanlararo perinatal markazlar orqali har bir tumandagi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikaning ayollar maslahatxonasi bilan uzviy bog'lanmoqda. Ayollar maslahatxonasi esa oilaviy shifokor boshchiligidagi tibbiy brigada tarkibida xizmat qilayotgan doylar faoliyati orqali har bir homiladorni va fertli yoshdagi ayolni nazoratga oladi.

Bitta yo'nalishda tarqoq holda faoliyat yuritayotgan uchta muassasaning yagona vertikal tizimga birlashishi onalik va bolalikni muhofazalash, reproduktiv salomatlikni

“ Tibbiyotni xalqqa yanada yaqinlashtirish, avvalo, birlamchi tibbiyot tizimini takomillashtirishdan boshlandi. Birgina o'tgan yili bu yo'nalishda belgilangan chora-tadbirlar ijrosi doirasida joylarda 22 ta oilaviy poliklinika, 93 ta oilaviy shifokor punkti va 394 ta mahalla tibbiyot punkti tashkil etildi. Natijada birlamchi tibbiy xizmatlar 2 million 100 ming nafardan ziyod aholiga yanada yaqinlashtirildi. ”

mustahkamlash, tug'ma nogironlikning oldini olish, sog'lom oilani shakllantirish va sog'lom farzand tug'ilishidagi harakatlar uzviyilgini ta'minlaydi.

Biroq bu sohada hali amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar kam emas. Zero, Prezidentimiz qayd etganidek, bundan keyin har bir ona va bola o'limi “favqulodda holat” deb baholalanadi va so'rov shunga yarasha bo'ladi.

Shu sababli mutasaddilarga xorijdan mutaxassislarni olib kelib, avvalo, ona va go'dak o'limi yuqori 20 ta tuman va shahardagi tibbiyot xodimlarini o'qitish vazifasida topshirilgan. Qolaversa, endi “xavf guruhi”ga kirgan homilador va tug'uruq yoshidagi ayollar bilan ishlash protokoli yangilanaadi.

Tibbiyot brigadalariidagi doylar ilg'or tajriba asosida reproduktiv salomatlik va homiladorlar parvarishi bo'yicha o'qitiladi. Perinatal markazlar boshqaruviga xorijiy mutaxassislarni olib kelish, tug'uruqxonalarni zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlash belgilangan.

Davlat tibbiy sug'urtasi tizimi o'ziga xosligi nimada?

O'zbekistonda xalqaro tajriba asosida davlat tibbiy sug'urtasi tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2020-yil 12-noyabrda “Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, yurtimizda yangi yo'nalish — Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tashkil etilgan edi.

Davlatimiz rahbari tomonidan shu yil 22-yanvarda qabul qilingan “Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorda esa Sog'liqni saqlash vazirligi tuzilmasida “Sog'liqni saqlash loyihalari markazi” loyiha ofisi ochilishi belgilandi.

Mazkur tuzilma davlat tibbiy sug'urtasi tizimini va davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketini to'liq joriy etish, tibbiy xizmatlar sifati va xavfsizligi ustidan nazorat tizimini kuchaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish, tibbiy ta'lim tizimi va ilm-fan sohasini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish kabi yo'nalishlarga mas'ul etib belgilandi.

Tibbiy sug'urta haqida so'z borganda, ushbu amaliyot Sirdaryo viloyatida 2021-yildan tajriba-sinov tariqasida boshlanganini eslash o'rinni. 2025-yilgacha ushbu tizimga mamlakat miqyosida bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan.

Joriy qilinayotgan yangi tizimda har bir fuqaroning salomatligi davlat hisobidan sug'urtalanmoqda. Ya'ni davlat tibbiy sug'urtasi tizimi vazifasi aholiga davlat tomonidan kafolatlangan paket doirasida bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatishdan iborat. Bunda bemorning davolanganlik holati bo'yicha barcha xarajat Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi orqali qoplab beriladi.

Mazkur tizimda fuqaro davolanishi uchun hech qanday mablag' to'lamaydi, a'zolik badali yig'ilmaydi, sug'urta polisi olmaydi. Yangi tashkil etiladigan markaz mana shu amaliyotni jiddiy nazorat qilish bilan shug'ullanadi. Davlat tibbiy sug'urtasi tizimi mamlakat bo'yicha joriy etilasa, barcha fuqaroning sog'lig'i o'z-o'zidan sug'urtalangan hisoblanadi. O'zbekistonda doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham kafolatlangan paketdan bahramand bo'ladi.

Kafolatlangan bepul tibbiy xizmat tibbiy xodimlari tomonidan klinik protokollarga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda oilaviy shifokor har bir muassasa turi bo'yicha tibbiy xizmatlar hajmi va klinik protokollarga muvofiq tur soha shifokorlariga va zarur hollarda tuman, viloyat hamda mamlakat darajasidagi shifoxonalarga yo'llanmalar beradi.

Ushbu tartibga rioya etilmagan hollarda kafolatlangan paketga kiritilmagan tibbiy xizmatlar pulli asosda amalga oshiriladi. Aholi sog'lig'ini monitoring qilish, ularni tibbiyot muassasasiga birlashtirish, kasallik tarixini yuritish, dori-darmon uchun retsept yozish va kafolatlangan paketga muvofiq tibbiyot muassasalariga yo'naltirish yagona elektron platforma orqali amalga oshiriladi.

Umuman, davlat tibbiy sug'urtasi tizimi to'liq ishg'a tushishi bilan xalqimizga ko'rsatilyotgan tibbiy xizmat sifati va ko'lami yanada oshadi, kasalliklarni erta aniqlash va oldini olish, aholining o'rtacha umr ko'rish darajasini uzaytirish imkoniyati kengayadi. Bemorlarning qaysi shifokor qabuliga kirsam ekan, donlarni qayerdan topsam ekan, degan savollariga o'r'in qolmaydi.

Bugun yangi O'zbekistonda “Inson — jamiyat — davlat” degan qoida hayotimizga keng joriy etilmoqda. Bu borada, hech shubhasiz, tibbiyot o'yat muhim o'r'in tutadi. Ushbu sohada masalangan katta-kichigi yo'q. Shunday ekan, bemorlar dardiga darmon bo'lish, ularning sog'lig'ini tiklash, hayotga qaytarsak, bu bilan butun oilaning baxтини, kelajagini ta'minlagan bo'lamiz. O'zbekiston tibbiyotida boshlangan islohotlar bundan keyin ham ana shunday yondashuv, tamoyil va mezonlar asosida davom ettiriladi.

Jasur RIZAYEV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori, professor.

olimlar esa bolalarning internetni bilishini ma'qullaydi. Chunki undan to'g'ri va me'yorida foydalanilasa, xorijiy tillar, matematika, hisob-kitobni oson o'zlashtirish mumkin.

Bundan xulosa shuki, hamma gap internetdan qanday maqsadda foydalanishda ekan. Bu maqsadni, odatda, ota-onalar belgilaydi. Ushbu jarayonda kattalar bolalarga badjahl qorovul va taqilovchi zim olmas, balki mehribon do'st va bilimdon muallim kabi bo'lishi lozim. Bunda ota-onaga nazorat dasturlari qo'l keladi. Ya'ni kompyuter yoki mobil quрилmalarga yuklab olingan filtrllovchi dasturlar orqali bola tez-tez “mehmon” bo'layotgan saytlarni, suhbatdoshlarni nazorat qilish mumkin. Bu dasturlar ota-onaga istalgan vaqtda bolasi telefonda nimalar qilayotganini kuzatish imkonini beradi.

Albatta, bu ota-onalar o'z yumushlari bilan band bo'lib, bolaga faqat taqiy va ta'qib qilish orqali emas, balki farzandi bilan tez-tez ochiq va samimiy muloqot qilishi, dildan suhbatlashib turishi kerak. Toki, bola tarmoqdagi hayot tarzini oila a'zolaridan sir tutmasin, oilasidan topmagan mehriini virtual dunyodan izlamasin.

Diibar MAMAJONOVA,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi deputati.

GIDROENERGETIKA RIVOJI UCHUN MUHIM MAYDON



➡ Shu bilan birga, anjuman doirasida O'zbekistondagi GES va kaskadlar faoliyati bilan yaqindan tanishish ko'zda tutilgan bo'lib, bu yo'nalishda tadbirning uchinchi kunida modernizatsiyadan so'ng 128 MVt quvvatga ega bo'lgan “Farhod GES” UKga xorijiy mehmonlar ishtirokida maxsus press-tur uyushtirilishi rejalashtirilgan.

— Mazkur yirik gidroenergetika forumi va ko'rgazmasi Markaziy Osiyo va Kaspiy mintaqalari davlatlari hamkorligida energetika sohasini rivojlantirish, mutaxassislar ishtirokida asosiy masalalarni muhokama qilish hamda tajriba almashish maqsadida o'tkazib kelinadi, — deydi “O'zbekgidroenergo”

AJ boshqarma boshlig'i o'rinbosari N. Akchabayev. — Bugungi forum ana shu maqsadlar ro'yobini yaqqol ifodalab turibdi. Asosiy ma'ruzalar mamlakatimizda gidroenergetika sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, joriy hamda kutilayotgan istiqbollarga bag'ishlanishi kutilmoqda. Bu tabiiyki, soha rivojida muhim o'r'in tutadi.

Aytilish joizki, kongress doirasida 40 dan ortiq ma'ruzalar o'r'in olgan bo'lib, soha mutaxassislari ishtirokida davra suhbatlari, seminarlar, brifinglar ham tashkil etiladi.

Rahim SHERQULOV
 (“Xalq so'zi”).

Yunus BO'RIYEV olgan suratlari.

TO'QIMACHILIKDA FRANSIYA TAJRIBASI

➡ Mamlakatimiz mutaxassislari Parijda malaka oshirishi uchun tanlangan mavzular, fransuz ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistonning ijodiy sohalar orqali xalqaro joylashuvi vazifalari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular Yevropa Komissiyasining tasnifiga ko'ra, madaniy meros va hunarmandchilik ijodiga asoslangan moda va to'quv san'atini o'z ichiga oladi. Bu mahalliy ishlab chiqaruvchilar orqali Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg'ona va mamlakatimizning boshqa viloyatlarida hududiy brendlarning shakllanishi bilan bevosita

bog'liq. Amaliyot dasturi ishtirokchilari Sorbonna professorlari va fan doktorlarining ijodiy brendlari, marketing texnologiyalaridan foydalanish, yangi mahsulot yaratish vositalari mavzulari bo'yicha mahorat darslarida ishtirok etdilar.

O'zbekiston vakillari, shuningdek, Fransiya to'qimachilik va moda institutining dizayn laboratoriyasida hamda Fransiyaning Dovil shahridagi “Fransiken” san'at markazida bo'ldi.

Amaliyot dasturi yakunida O'zbekiston to'qimachilik sanoati vakillari “IEERP-Paris” institutining maxsus diplomlari bilan taqdirlandi.

Veronik SURNI,
Yevropa xalqaro menejment institutining xalqaro direktori, “IEERP-Paris” kengashi a'zosi:
— Parijdagi Yevropa PR institutida texnika va kommunikatsiya amaliyotlari, shu jumladan, hashamatli va yetakchi brendlari bo'yicha treninglar o'tkazamiz. O'zbekistonlik mutaxassislarning malakasini oshirishda biz to'qimachilik sohasiga e'tibor qaratdik. Fransiya ipak va paxta mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha boy merosga ega, moda to'qimachiligida dunyodagi yetakchilardan biri hisoblanadi. O'z navbatida, o'zbekistonlik hamkasblarimizdan O'zbekiston to'qimachilik sanoatining rivojlanishi haqida ma'lumot olish biz uchun ham qiziq va juda foydali bo'ldi.



Assayel ADARI,
“Occurrence” agentligi bosh direktori, “IEERP-Paris” kengashi a'zosi:

— O'zbekistondagi bir guruh dizaynerlar va to'qimachilik sohasi vakillari bilan ishlash men uchun juda qiziq bo'ldi. Ularga kommunikatsiya sohasidagi Fransiya tajribasi taqdim etildi. Ijodiy soha turi mamlakatlar xalqlari o'rnatadigan aloqalar, madaniy va iqtisodiy almashinuvlarni rivojlantirish uchun yaxshi vosita, deb hisoblayman. O'zbekistonlik dizaynerlarning Parijdagi ushbu amaliyoti kelajakda o'zaro manfaatli yangi loyihalarning muqaddamasi bo'lishiga umid qilaman.

Kamola G'ULOMOVA,
“O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasining gender tengligi va dizaynni rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi:

— “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi ko'magida birinchi guruh Parijda brendingda badiiy kommunikatsiyalar bo'yicha amaliyot o'tadi. Yevropa PR instituti bizga qiziqarli dasturni taklif qildi, unda nima uchun brendni ishlab chiqish zarurligi, “o'sish nuqtalari”ni qanday topish va qo'shimcha qiymatga erishish kabi mavzularda ma'ruzalar va seminarlar o'tkazildi. Albatta, buni nazariy jihatdan, maxsus adabiyotlar yordamida o'rganish mumkin, lekin uni joyida, amalda o'rganish boshqa masala. Nazarimda, bu ikki barobar qiziqarli va samarali bo'ldi. Loyihani davom ettirishni rejalashtiryapmiz.



“Dunyo” AA.
Parij

FARZANDINGIZ “VIRTUAL OLAM”DA NIMALAR BILAN BAND?

➡ Bilasiz, o'smirlar davrida bolalar juda ta'sirchan, jahldor, tez xafa bo'lib qoladigan odat chiqaradi. Bunday paytda ular o'z hissiyatini jilovlay olmaydi. Do'stlari, yaqinlari bilan mavjud muammolari xususida suhbatlashib, taskin topishni istaydi. Shunday pallada ko'pincha ijtimoiy tarmoqlardagi “beminnat” muloqotlar qiziydi.

Tabiiyki, onlayn muloqot jonli muloqotdan farq qiladi. Bu borada o'zgacha xulq-atvor me'yorlari va mezonlari mavjud. Forum va chatlardagi muloqotda anonimlik, ya'ni noma'lumlik holati foydalanuvchilarga real hayotda aytolmaydigan gaplarni virtual hayotda aytish imkonini beradi. Bola tarbiyasida, avvalo, ana shu muloqot va tanishuvlarni nazoratga

olish lozim. Chunki bolalarning internetda aldov qurboniga aylanishiga aynan shu omillar sabab bo'lmog'da.

Shu jihatdan, ota-onalar ijtimoiy tarmoqda “kutlimagani” tanishuvlardan ehtiyot bo'lishi, beozor ko'ringan kimsalar, aslida, “yovuz kuchlar” ekanini bolasiga, albatta, tushuntirishi kerak.

Axborot xavfsizligi bo'yicha ekspertlarning ta'kidlashicha, o'smirlar va yoshlar haqidagi eng muhim ma'lumotlar aynan ular foydalanayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy sahifalardan olinadi. Ayniqsa, yosh foydalanuvchilar o'zi to'g'risidagi shaxsiy ma'lumotlarni, ya'ni tug'ilgan kuni, ismi, telefon raqami, yashash manzili, qaysi joylarda bo'lishi, ijtimoiy ahvoli,

nimani yaxshi ko'rish, kayfiyati, xarakteri haqida ijtimoiy tarmoqda yozishni xush ko'radi. Lekin bugun bolalar va o'smirlarning internet tarmog'idan foydalanish vaqtini nazorat qiluvchi aniq me'yori ishlab chiqilmagan.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Xo'sh, bugun ota-onalar bolalariga internetni cheklashi kerakmi yoki undan samarali foydalanishni o'rgatishlari zarurmi?

Aytilish joizki, internetni voyaga yetmagan yoshlarga cheklash kerak, deganlar tarmoqning axloq va salomatlikka salbiy ta'sir etishiga e'tibor beradi. Ya'ni bola virtual muloqotlarga o'rganib, real hayotdan uziladi. Tushkun holatda atrofdaqildardan emas, virtual olamdagi noma'lum kimsalardan najot izlaydi. Bir guruh



14-mart — “O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi” faxriy unvoni ta’sis etilgan kun

BAXSHICHILIK – NODIR SAN’AT

Xalqni ruhlanitirib, hamjihat, hamkor qilib, yagona ezgu maqsadlar sari intilishida baxshi kabi ilhom beruvchi, fidoyi, beminnat xizmatchini topish mushkul. Baxshi, avvalo, soʻz odami, soʻz odami esa albatta, soʻz qadrini, “baxshilik el botir” boʻlishini yaxshi biladi, ezgu soʻzni moʻtabar tutadi. Yaxshilikni qoʻllash dononing yumushi ekanini boshqalarga ibrat qilib koʻrsatadi, el xizmatiga kamarbasta erlardan namuna olishga chorlab daʼvat etadi. Xuddi Ergash Jumanbulbul oʻgʻli aytganidek:

*Aytmoq darkor nazarkarda erlarni,
Vaqtinda gurkurab oʻtgan sherlarni,
Oʻzi oʻlmay dushman izin bosmagan,
Qoʻshindan qaytmagan ajdahorlarni...*

Maʼlum davr tin olib, mudragan baxshichilik sanʼatining qayta jonlanishi, yangi kuch enib rivojlanishi, kelajak avlodlarga asl qadriyat sifatida yetib borishi va singishida 2000-yil 14-martda “Oʻzbekiston Respublikasi xalq baxshisi” faxriy unvoni taʼsis etilishi, ayniqsa, keyingi yillarda yurtimizda ushbu noyob sanʼatga berilayotgan yuksak eʼtibor muhim oʻrin tutmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda Xalqaro baxshichilik sanʼati festivali muntazam oʻtkazib kelinayotgan oʻzbek milliy baxshichilik va dostonchilik sanʼatining noyob namunalari asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targʻib qilish, yosh avlod qalbidagi ushbu sanʼat turiga hurmat va eʼtibor tugʻilurini yanada kuchaytirish, turli xalqlar oʻrtasidagi doʻstlik, birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-maʼnaviy munosabatlarni doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik sanʼatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga koʻtardi. Ushbu hujjatga muvofiq, Respublika baxshichilik sanʼati markazi va uning hududida Baxshichilik sanʼatini rivojlantirish jamgʻarmasi tashkil etildi. Mazkur bebaho sanʼatning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini chuqur oʻrganish va mustahkamlash, sohada shakllangan ijodiy maktablarning oʻziga xos jiro uslublari, “Ustoz — shogird” anʼanalarini qayta tiklash va rivojlantirish, baxshi-shoirlar, folklorshunos olimlar, oʻqituvchi hamda mutaxassislarining ijodiy va ilmiy faoliyatini qoʻllab-quvvatlash, madaniyat markazlari, bolalar musiqa va sanʼat maktablari va boshqa taʼlim muassasalari qoshida baxshichilik sanʼati toʻgaraklarini tashkil etish hamda boshqa qator ishlar markazning asosiy vazifalari etib belgilangan.

Darhaqiqat, baxshichilik — nodir sanʼat. Baxshi chinakam sanʼatkor. Asl sanʼat ahliga qoʻyiladigan barcha talab baxshichilikning amalda, u kuylagan dostonu termalarda oydek namoyon boʻladi. Qoʻshiq koʻngil bulogʻidan qaynab chiqsa, boshqa koʻngillarda ham buloqlar koʻz ochadi. Koʻngillar koʻngillarga rost boʻlib, ruh ulkan parvozlar bilan yangilanib, tozarish, poklanish

iqimlariga oʻtadi. Baxshi-shoirming bu hayotdagi vazifasi koʻngillarni tozartib, har bir insonga oʻzini tanishda vositachi boʻlishdan iborat. Xalq koʻngilining tili boʻlgan chinakam baxshi barcha katta-kichik davrga mos har qanday juzʼiy holatdan falsafiy xulosalar beruvchi ijodkor sanaladi.

“Yaxshi shoir elni yigʻar, tarqatmas”. Ayni tarif baxshi soʻzining el orasidagi “soqi”, “yuzboshi”, “sannovchi”, “jirchi”, “oxun” kabi sinonimlarining mahrajida ham jamlanib, biri ikkinchisini toʻldirib, baxshi-shoirming jamiyatdagi oʻrni va missiyasini toʻlaroq anglab yetishimizga xizmat qiladi.

Folklorshunoslar baxshi soʻzining kelib chiqishi, etimologiyasini moʻgʻul, buryat tilidagi baxsha, bagʻsha — ustod, maʼrifatchi maʼnolariga bogʻlab talqin etishgan, yana koʻhna uygʻur yozuvlarida, Chigʻatoy ulusi, Oltin Oʻrda, Qrim xonliklarida kotib, boburiylarda harbiy qismlarda hisob-kitob yurituvchi, maoshga masʼul shaxs, Buxoro xonligida davlat binolari qurilishida mablagʻ hisobini yurituvchi amaldor, turkmanlarda urugʻ oqsogʻoli maʼnolarida kelishini yozganlar.

Biz xalq tilida keng qoʻllanadigan: “...mullaga oʻqitib, qushnochga qoʻqitirib, baxshiga boʻqtirib...” anʼanaviy jumla tarkibidagi “baxshiga boʻqtirib” birikmasiga diqqat qaratar ekanmiz, bu oʻrindagi “boqmoq” soʻzining “baxshi” atamasiga aloqasini angladik. Xalq soʻzlash jarayonida soʻz maʼnosini tabiiy ravishda toʻgʻri tanlaydi, xalq adashmaydi. Xalqda bu qarash turgʻun, anʼanaviy shakl olgan. Mulla bemorga sogʻliq tilab duʼo oʻqisa, qushnoch (shomon) harakat va soʻz bilan ust-boshini qoqadi. Baxshi esa boqadi — qalb koʻzi bilan jarayonni koʻradi, kuysa solib, ruhni davolaydi. Oʻzbek xalq dostonlari, qoʻshiq va termalarini kuylovchi shaxsni ifodalovchi “baxshi” soʻzining sanskritcha, xitoycha va yana boshqa tildagi atamalarga hech bir aloqasi yoʻq. U xalqimizning inson aqli chegaralaridan narida, ruhiyatning gardishsiz sarhadlarini, ijodiy qobiliyatini,

tafakkur jarayonlarini taʼmin etuvchi gʻayb olami bilan bogʻlanish jarayonlarini, qalb koʻzi bilan boqish hollarini ifodalovchi yagona “boqish” soʻziga daxldordir.

Baxshi shunchaki doston, terma, qoʻshiq kuylamaydi, balki yurt ulugʻlari safida elga oʻgit beradi, koʻnglini koʻtaradi, yupatadi, qadr-qimmatini anglatadi, ruhan va jisman dardiga malham boʻladi, kamolotiga xizmat qiladi. Qadimda baxshilarning kohlilar, shomonlar qatorida turganligi bejiz emas. Har bir kasbda boʻlgani kabi baxshi-shoirlarning ham homiylari, piru ustozlari bor. Xalq Xoʻjayi Xizr, Qoʻrgʻot ota, Oshiq Oyidin, Koʻr Gʻoyib, Ovul Patta kabi baxshichilikning ustoz-pirilarini hurmat bilan eslab, Soqibulbul, Ollanazar Olchinbek kabi epik baxshi-shoirlar obraz



timsollarini ulugʻlab qoʻshiqlar yaratgan, dostonlarda kuylagan.

Oʻzbek xalqi baxshi-shoirlarga boy el. Mamlakatimizning har bir hududida dong taratgan baxshi-shoirlar va ular mansub boʻlgan dostonchilik maktablari mashhur. Bugungi kunda Qoʻrgʻon, Bulungʻur, Narpay, Sherobod, Xiva, Shahrisabz, Piskent, Qamay kabi dostonchilik maktablarining shuhrati jahonga yoyilmoqda. Bu dostonchilik vakillaridan meros qolgan “Alpomish”, “Goʻroʻgʻil” turkumi, “Kuntugʻmish”, “Yakka Ahmad”, “Rustamxon”, “Qironxon”, “Orzuqul”, “Erali va Sherali”, “Oshiq Gʻanib va Shohsanam” “Tohir va Zuhra” kabi koʻplab dostonlarning XXI asrda ham jonli ijroda kuylab kelinayotgani noyob sanʼat hodisasi hisoblanadi.

Har bir davrning oʻz ohangi boʻladi. Ohangini zamon, mavjud shart-sharoit, keng maʼnoda insonning butun koinotda kechayotgan harakat oqimiga uygʻun yashashi paydo qiladi. Oʻtgan asr oʻzbek qoʻshiqchiligida ohangning qanchalik yangilanganini oʻttizinchii yillardan boshlab saksoninchi yillar va bugungi

kun namunalariga solishtirib tezda ilgʻash mumkin. Qisqacha aytilsa, ohangdagi shiddat, jadallashuv tobora siqilib kelayotgan vaqt kabi kishini hayratga soladi. Bir zum toʻxtab, fikr qilishga ham ulgurmay qolasiz. Bu xil yangilanish xalq maʼnaviy hayotining barcha sohasida bir xil yuz berayotgani tabiiy jarayon. Baxshi ohanglari ham davr bilan hamnafas rivojlanib kelmogʻda.

Tadqiqotchilar kuzatishlariga koʻra, Xorazm vohasida oʻtgan asrning 50-yillarida boshlanib, ichki ovoz toʻliq sirtqi ovozga, qoʻshiq yoʻliga oʻtgan va tezlashgan boʻlsa, XIX asr boshlarida Xivaga tashrif buyurgan sayyoh xon saroyidagi baxshilar boʻgʻiz tovushi orqali doston kuylashganini qayd etgan. Qashqadaryo va Surxondaryo baxshichiligida esa oʻtgan asrning 70-yillaridan boshlab ichki ovoz sirtga koʻcha boshladi. Oʻzbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonov Mamarayim Qobil degan kexsa baxshining “Ilgarigi baxshilarning ovozi koʻkrakdan past — qorindan chiqardi, keyingilar koʻkrakka boʻyin birlashgan joydan aytadigan boʻldi. Sizlar kekidakdan aytayapsizlar, endigilar tanglaydan kuylayapti”, deb aytgan soʻzlarini keltirgani fikrimizni tasdiqlaydi. Baxshichilik sanʼatida ijrochining ichki ovozdan tashqi ovozga oʻtishi shunchaki paydo boʻlib qolayotgan hodisa emas. Folklorshunoslik jiddiy oʻrganilishi lozim boʻlgan murakkab jarayon. Shu oʻrinda, ohangning zamon talab etayotgan tempi bilan bogʻliq va boshqa faktorlarni ham tadqiq etib, tegishli xulosalarga kelish lozim.

Bugungi kunda besh-olti dostonni boshdan adiq tinglovchilar talabiga mos ijro etib beruvchi baxshilarning sanoqli ekanini yodga olsak, ular ijrosidagi namunalarni zamonaviy texnik vositalar bilan ilmiy dastur asosida yozib olish zarurati allaqachon yetib kelgani maʼlum boʻladi. Chunki anʼanaga sodiq qolgan baxshichilik ijrosini yana qayta tiklash ehtiyoji yurtimizning barcha hududida toʻliq maʼnaviy ehtiyojga aylanadi. Biz hozirda Qoʻrgʻon, Bulungʻur, Shahrisabz maktabiga mansub baxshi-shoirlarning

Zamon tezlashib, fikrlash oʻrnini axborot almashish egallab olayotgan bugungi davrda xalq maʼnaviyatining ajralmas qismi boʻlgan baxshichilik sanʼati ham noyob hodisaga aylanmoqda. Folklorida professional jiro yoʻqolgan muhitda ularning oʻrni ham unutiladi. Shunday ekan, eposning tabiiy jiro jarayoni saqlanib turgan hududlardagi koʻhna merosni asrab qolish yoʻlidagi barcha harakat qoʻllab-quvvatlashga, tahsingga loyiq. Ana shunda qachonlardir “Yoʻqolgan pichoqning sopi oltin”, deb afsus qilmaymiz.

Shomirza TURDIMOV,
filologiya fanlari doktori.

QISQA SATRLARDA

Sahnada – jahon klassikasi durdonalari

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va sanʼatni rivojlantirish jamgʻarmasi tomonidan uyushtirilgan Xalqaro opera va balet festivali yakunlandi.

Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston davlat akademik katta teatri sahnasida jahonning yetakchi baletmeysterlari, rejissyorlari tomonidan sahnalashtirilgan spektakllar sanʼat muxlislari eʼtiboriga havola qilindi.

Festival doirasidagi balet-spektakllar, konsert dasturlari, taqdimotlar mehmonlarda katta qiziqish uygʻotdi.

Taʼlim muassasasi foydalanishga topshirildi

Surxondaryo viloyatida Qiziriq agrotehnologiyalar texnikumining ochilish marosimi boʻlib oʻtdi.

YUNESKoning Oʻzbekistondagi vakolatxonasi tomonidan taʼmirlangan ushbu texnikumda 300 dan ortiq talabalar tahsil oladi. Taʼlim jarayoniga 17 ta maxsus kvalifikatsiyaga ega boʻlgan keng qamrovli oʻquv dasturlari kiritilgan. Muassasa qishloq xoʻjaligi traktorlari va agregatlari, AKT uskunlari va muzlatkichlar kabi muhim resurslar bilan jihozlandi.

Tanlovda eng namunalilar aniqlandi

Andijonda “Eng namunali mahalla raisi” koʻrik-tanlovining viloyat bosqichi boʻlib oʻtdi.

Tuman va shaharlar miqyosidagi tanlovlarda gʻoliblikni qoʻlga kiritgan ishtirokchilar faoliyatga doir shartlar boʻyicha oʻz bilim hamda koʻnikmalarini namoyish etdi.

Har bir chiqish tajribali mutaxassislardan tarkib topgan hayʼat aʼzolari tomonidan baholandi. Yakunda Xonobod shahridagi “Yangi hayot” MFY raisi Azizaxon Abduqahhorova tanlov gʻolibi, deb eʼlon qilindi.

Transformatsiya jarayonlari muhokama qilindi

Osiyo taraqqiyot banki vakillari hamda “Oʻzsvuttaʼminot” AJ masʼullari ishtirokida uchrashuv tashkil etildi.

Iqtisodiyotni boshqarishni takomillashtirish dasturiga asosan oʻtkazilgan mazkur uchrashuvda “Oʻzsvuttaʼminot” AJ operativ-moliyaviy koʻrsatkichlari hamda xizmatlar koʻrsatish sifatini yaxshilash boʻyicha transformatsiyalar strategiyasi va “yoʻl xaritalari”ni tasdiqlashda amalga oshirilishi lozim boʻlgan ishlar muhokama qilindi.

Yakunda hamkoriikni kengaytirish yuzasidan kelishib olindi.

“Xalq soʻzi”.

REKLAMA

Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqini bank kartalariga 24/7 rejimida kirim qilish yoʻlga qoʻyildi

“Oʻzmilliybank” AJ “iABS” axborot tizimi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Axborot texnologiyalari markazi bilan hamkorlikda “UzASBO 2.0” dasturiy taʼminoti oʻrtasida axborotlar almashinuvi boʻyicha integratsiya muvaffaqiyatli yakunlandi.

Ushbu hamkorlik natijasida maʼlumotlar almashinuvi yangi “JSON” formatida amalga oshirilishini hamda jarayon toʻliq avtomatlashtirilganligini maʼlum qilamiz.

Yaratilgan yangi imkoniyat, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlarni ularning bank kartalariga 24/7 rejimida onlayn tarzda kirim qilish imkoniyatini beradi.

Endilikda tashkilot buxgalterlari bank operatsiya kuni, bayram kunlari hamda dam olish kunlariga bogʻliq boʻlmagan holda amaliyotlarni amalga oshirishlari mumkin.

Xizmatlar litsenziyalangan.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda raqamli transformatsiya:

MASOFALI BANK XIZMATLARI KO‘LAMI ORTOMOQDA

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida raqamli transformatsiya jarayonlariga bag‘ishlangan matbuot anjumani o‘tkazildi. Unda bank mutasaddilari tomonidan ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar va ustuvor vazifalar xususida batafsil ma‘lumot berildi.

— Bank tizimida raqamli transformatsiya, bu moliya muassasasida zamonaviy moliyaviy texnologiyalar, dasturlar hamda ularni qoʻllashda bilim va koʻnikmalarga ega boʻlgan kadrlar kuchi bilan amalga oshiriluvchi harakatlar majmuidir, — deydi “Oʻzsanoatqurilishbank” ATB boshqaruv raisining birinchi oʻrinbosari A. Ergashev. — Prezidentimizning 2020-yil 12-maydagi “2020 — 2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni asosida muassasa faoliyatini isloh qilish jarayonidagi ishlarning salmoqli qismini raqamli transformatsiya egalladi. Xususan, 2022-2023-yillar davomida bank tomonidan axborot texnologiyalari (IT) infratuzilmasi mustahkamlandi, internet va mobil-banking xizmatlari takomillashtirildi, yangi turdagi onlayn xizmat hamda mahsulotlar joriy qilindi.

Pirovardida joriy yilning 1-mart holatiga koʻra, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 34 mingdan ortdi. Oʻtgan yilning shu davridagiga nisbatan mahsulot

Moliya muassasalarida

va xizmatlar sotuvi 57 foizga oshdi. Tranzaksiyalar hajmi 2022-yilda 6,5 trln. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, hisobot davriga kelib uning miqdori 25 trln. soʻmga yetdi.

Oʻtgan yili “SQB Business” internet bank xizmati orqali bajarilgan amaliyotlar hajmi sezilarli darajada oshdi, bunga sabab uning mobil versiyasi ham ishga tushirilganidir, — deydi “Oʻzsanoatqurilishbank” ATB Raqamli biznes departamenti direktori Temur Norov. — Dastur foydalanish uchun qulay va sodda interfeysga ega, xavfsizlik jihatdan ham barcha talabga javob beradi. Bugungi kunda platforma orqali mijozlar 24/7 rejimida hamma turdagi bank xizmatlaridan foydalanib, kundalik toʻlovlarni amalga oshirib kelmogʻda. Unda depozit mablagʻlarini toʻliq joylashtirish va boshqarish imkoniyati mavjud. “Buxgalteriya 1S” dasturi bank integratsiya qilingani esa mijozlarga qoʻshimcha qulayliklar tugʻdiryapti.

Matbuot anjumanida “Joyda” mobil ilovasining yangilangan talqini, xususan,

uni yanada sodda va jozibador koʻrinishga keltirish maqsadida amalga oshirilgan ishlar, onlayn bank xizmatlari va mahsulotlar boʻyicha taqdimot namoyish etildi.

Taʼkidlanishicha, soʻnggi yilda ilovadagi xizmatlar qatoriga yuqor muddatli kreditlar, onlayn identifikatsiya, “Visa alias” (barcha davlatlarda telefon raqami orqali “Visa” kartalararo pul oʻtkazish), kredit karta, valyuta kurslari, avto-toʻlov xizmatlari, elektr energiya uchun kredit kabi xizmatlar kiritilgan.

Tadbirda kreditlash sohasida joriy qilingan “CRM” (Customer Relationship Management) — Mijozlar bilan oʻzaro munosabatlarni boshqarish) tizimi haqida alohida toʻxtalib oʻtiladi.

Tizimdan mijozlar bazasi va “kredit konveyer” dasturiy taʼminoti joy olgan, — deydi T. Norov. — Ular asosida kredit buyurtmalariga ishlov berish, kredit ajratish va uni qaytarish



jarayoni toʻliq avtomatlashtirilgan. “Kredit konveyer” dasturi garovlar reestri, kredit byurosi, yuridik shaxslar reestri kabi tashqi maʼlumot bazalari bilan integratsiyalangan boʻlib, bu mijoz soʻrovini oʻrganish jarayonini karrasiga tezlashtirmogʻda.

Ayni paytda bank tomonidan “kredit konveyer” dasturiy taʼminoti jismoniy shaxslarga xizmat koʻrsatishda qoʻllanilmoqda. Buning hisobiga arizalarni koʻrib chiqish vaqti 3 baravarga kamaygan, kredit mahsulotlarini sotish hajmi esa 2,6 baravarga oʻsgan. Joriy yilda ushbu tizimni yuridik shaxs maqomidagi mijozlar uchun ham ishga tushirish rejalashtirilgan.

— Raqamli evolyutsiya davom etar ekan, faoliyatimizni ushbu jarayonga muvofiq rivojlantirib borish

ustuvor vazifa boʻlib qolaveradi, — deydi “Oʻzsanoatqurilishbank” ATB Loyiha boshqaruvi ofisi rahbari Abdulaziz Majidov. — Bankning 2023 — 2027-yillarga moʻljallangan IT strategiyasiga koʻra, aholi va tadbirkorlarga koʻplab yangiliklar hozirlaganmiz. Xususan, joriy yilda “SQB Business” dasturida mijozlar uchun masofadan hisob raqamlar ochish, ish haqi va korporativ kartalarni onlayn rasmiylashtirish, yuridik shaxslarga onlayn kreditlar ajratish imkoniyatlari yaratiladi. Barcha xizmatlar paketi joylashtiriladi, xat-hujjatlar almashinuvi, kredit va nokredit mahsulotlar sotuvi yoʻlga qoʻyiladi. “Joyda” mobil ilovasidagi xizmatlar majmui esa xalqaro bank kartalari orqali kontaktiz toʻlovlarni amalga oshirish, xalqaro pul oʻtkazmalari, QR toʻlovlar bilan boyitiladi. Xizmatlar uchun keshbeklar taklif etiladi. Bundan tashqari, har ikki dasturda barcha turdagi kreditlar sotuvi joriy qilinadi.

Anjumanda, shuningdek, kibernetik sharoitida mijozlarga xavfsiz va kafoflatlangan xizmat koʻrsatish maqsadida muhim qadamlar tashlangani aytib oʻtiladi. Serverlar sigʻimi va maʼlumotlarni himoyalash darajasini oshirishga qaratilgan bank IT tizimini yangilash va optimallashtirish kompleks ishlari olib borilayotgani qayd etildi.

Bank Axborot xizmati.

Xizmatlar litsenziyalangan.

Xalq soʻzi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir Oʻtkir RAHMAT

2020-yil 25-martda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tabqo. Ofset usulida bosilgan. Qoʻgʻoz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi maʼlumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
eʼlonlar 71-259-74-55.



“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon koʻchasi, 41. OʻZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 00.30

1 2 3 4 5 6